

ROMANIAN AND NAVOI: TRADITION AND HERITAGE

Kamolova Aida Alisher qizi

Student of the Faculty of Uzbek Language and Literature of Tashkent State Pedagogical University named
after Alisher Navoi
+99890 005-50-96 aidakamolova2@gmail.com

Supervisor: Associate Professor Hoshimjon Ahmedov
Candidate of Philosophical Sciences

Annotation: This article discusses and discusses the interconnectedness and similar universal ideas in the most productive and main themes of the works of the great thinkers of the East, Mawlana Jalaliddin Rumi and Hazrat Alisher Navoi.

Keywords: Uzbek classical literature, mysticism, perfect man, humanity, symbolic image, proverbs, epic "Khamsa"

RUMIY VA NAVOIY: AN'ANA VA VORISIYLIK

Kamolova Aida Alisher qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
+99890 005-50-96
aidakamolova2@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dotsent Hoshimjon Ahmedov
Falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharqning buyuk mutafakkirlari Mavlono Jaloliddin Rumi va Hazrat Alisher Navoiy ijodiyotining eng sarmahsul va bosh mavzularidagi o'zaro tutash va o'xshash umumbashariy g'oyalar qalamga olinadi va mulohaza bildiriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf, komil inson, insonparvarlik, ramziy obraz, hikmatlar, "Xamsa" dostoni

O'rta asr Sharqining eng yirik allomalaridan biri bo'lgan Jaloliddin Rumi ijodiyoti oradan yetti asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, hamon o'z mohiyatini yo'qotgan emas, Rumi hikmatlari barcha zamonlar uchun xos va mosdir, chunki unda ham san'at, ham she'riyat, tasavvuf, falsafa, hikmat, diniy va dunyoviy ilmlarning hammasi mujassam. Jaloliddin Rumi – jahon adabiyotining yirik siymolaridan biridir. U o'zidan keyingi Sharq va G'arb so'z san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Rumiyaning so'ng yashab o'tgan deyarli barcha buyuk shoirlari uni o'zlariga ustoz deb bildilar. Abdurahmon Jomiy "Masnaviy ma'naviy"ni benazir kitob, forsiydagi Qur'on" va "U payg'ambar emas, ammo payg'ambarlik kitobi bor deb ulug'lasa, hazrat Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Rumiyni yuksak hurmat va ehtirom bilan "Ustozlar ustoz" deb tilga oladi. Alisher Navoiy uni ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko'z ilg'amas cho'qqisi deb sharaflaydi. [1. Jaloliddin Rumi "Ichindagi ichindadir", 3-bet] Buyuk Gyote Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofizlar qatorida Jaloliddin Rumi ijodini ham "Xizr chashmasi" deb atagan. Jaloliddin Rumi ijodi bugungi kunda ham insoniyatning ma'naviy kamolotga yetishuvida xizmat qilmoqda. [2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/jaloliddin-rumi-y-hikmatlar.html>]

Bilamizki, Mavlono Rumiyni turkiy adabiyotning ko'plab vakillari o'zlariga ustoz deb bilganlar. Jumladan, Rumi va Navoiy asarlarining g'oyaviy jihatdan birligi va umuminsoniy g'oyalar ifodalashi bilan bir-biriga o'xshashdir. Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, haqiqat, adolatparvarlik,

do'stlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik, Allohga bo'lgan tasavvufiy ishq kabi go'zal tuyg'ulardir. Alisher Navoiy hazrat Rumiylar umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etadi. Rumiylarning "Ichindagi ichindadir", "Masnaviyi ma'naviy", "Hikmatlar" singari asarlarida Allohga bo'lgan pokiza ishq, ruhan poklanish, o'zlikni anglash va dunyo hikmatlaridan voz kechib, nafsni yengish kabi mavzular yoritilgan

«Ichindagi ichindadir» mohiyatan Qur'oni karimning o'ziga xos tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iboratdir. [1. "Ichindagi ichindadir", muqaddima 3-5-betlar] Bu asardagi deyarli har bir bayt yo muqaddas Qur'on oyati, yo hadisi sharif bilan asoslanganligini yoki, aksincha, biror oyat yoxud hadis ma'nosi biror voqea, hodisa va yo rivoyat yordamida ochilganligini, muqaddas kitobdan juda ko'p iqtiboslar olinganini ta'kidlaydi. Bu asar mavlono Rumiylarning buyuk zot Allohning yakkayu -yagona ekanligini tasdiqlab qilgan zikrlari, Uning qudrati haqidagi fikrlari, odamzodga bergan ne'matlari uchun Unga astoydil shukrlarining badiiy ifodasidir. "Ichindagi ichindadir" ma'nolar xazinasini, hikmatlar sandig'i, go'zallik manbai bo'lgan mukammal asar bo'lishidan tashqari, ishq va ishqsizlik, haqlik va nohaqlik, haqiqat va yolg'on, vafo va jaf, yaxshilik va yomonlik, oqillik va nodonlik, mehr va g'azab, nafrat va shafqat, poklik va munofiqlik, saxiylik va baxillik, kabi yuzlab, minglab insoniy-dunyoviy qarama-qarshiliklarni o'zida aks ettiradi va insoniy xislatlarning yuqori darajada turishini rivoyatlar, dalillar orqali asoslaydi.

Alisher Navoiylarning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Uning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.. Xuddi shunday, «Ichindagi ichindadir" ning asosiy maqsadi insonni illatlardan poklanishga, komillikka, mukammallikka, ma'naviy yetuklikka da'vat etishdir. Inson dunyoga faqat yeb-ichish, o'ynab-kulish, boylik orttirish, baland mavqelarni egallash, umuman dunyoviy orzu-havaslarining quli bo'lib yashash uchun emas, balki, eng avvalo o'zini yaratgan Zotni – Allohni tanish, Uning amrlarini ado etish uchun va Unga komil, mukammal bo'lib qaytish uchun intilib yashashi lozim. Bu esa insonning barcha dunyoviy illatlardan – yomonliklardan qalban, ruhan poklanishini taqozo etadi.

Kimki komil, bo'lmag'oy g'aflat manga,

G'alati ilmu xirad podosh etar.

Kimki johil, bo'lmag'oy hikmat anga,

Imi ham bir kun jaholat fosh etar. [3. Radiy Fish "Jaloliddin Rumiylar", 24-bet]

Rumiylar ko'ra, inson aslan xuddi farishtalarga o'xshash ko'zga ko'rinmas ruh bo'lib, ma'naviyat olamiga tegishlidir. Ruh Xudodandir. Parvardigor uni O'zi yasagan xok qolipga – shaklga, ya'ni, insoniy jussaga jo etgan. Ibtidosi va intihosi mavjud bo'lgan hamma narsa qolipdir, deydi Mavlono Rumiylar. Navoiylar g'azallaridan birida:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,

Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo. [4. Alisher Navoiylar, "Badoye ul-vasat", 1-bet] baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvalining boshi bo'lmaganidek oxirining adog'i yo'qligi tasdiqlaydi.

"Dard doimo insonga yo'l ochadi. Vujud ham Maryam kabidir. Har birimizning Isomiz bor. Bizda ham o'shanday dard paydo bo'lsa, Isomiz tug'iladi. Agar dard bo'lmasa, Iso ham o'z kelgan yo'lidan qaytib ketadi, biz ham undan foydalanmoqdan mahrum bo'lamiz." Bilamizki, tasavvufda o'zini Olloh yo'lga baxshida etgan odam nafsoniy xislat va shaytoniy istaklarini jilovlab, tarki dunyo qiladi, nafsini o'ldiradi. Ammo shu bir lahzalik o'lish evaziga azaliy jannatlarni qo'lga kiritadi. Demak, Allohning muhabbati Iso mo'jizasi kabidir, inson qalbiga Alloh ishqini tushdimi, u ruhan poklanadi, yangidan tug'iladi. Agar dard bo'lmaganda edi, Farhod ham, Majnun ham, Yusuf ham Allohga yetisha olmas edilar. Farhod olishib yenggan ajdaho, Axriman dev, shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki har bir insonning ichki olamidagi nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir.

-G'ayb olamidin agar xaholab uchdim,

Bu dayri fano ichra yetishdim, tushdim.

Hech kimsaga esh bo'lmadi bu sirri nihon,

Besayd va besamar jahondin kechdim. [3. Radiy Fish " Jaloliddin Rumiylar ", 36-bet]

Komillikka erishish tasavvufning asosiy mezonidir. Navoiy asarlarida ham bu bosh mavzu qilib olingan. Ayni paytda "Farhod va Shirin" dostonidagi bosh qahramonlarning o'zlari ham ramziy ma'no kasb etadi. [5. Adabiyot-9, 1-qism 92-bet] Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go'zal, o'ta nafis va nozik iymon ko'zgidir. Shunday ko'zguki, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti – Shirinning huzuriga bo'lgan yo'l'dagi tortgan azoblari bir insonning komillik yo'lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi. Farhodning Shirin istiqomat qiladigan qal'ani, yurtni himoya qilishi tasviri aslida komil iymonli shaxsning qalb qal'asi ichidagi dunyodagi eng bebaho, go'zal ne'mat — Yaratganning iymon tuhfasi asrashi, unga tajovuz qilayotgan shayton lashkarlaridan, nafs qutqularidan himoya qilishining ifodasidir. Tasavvufda ishq deganda faqat mehr, sevgi kabi tuyg'ulargina emas, ulardan tashqari yana iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Oллоhga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig'indisi tushuniladi. Ishqning o'rni ko'ngilda bo'ladi. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi. «Hayrat ul-abror»da insonni ulug'laydigan imon, karam, adab, qanoat, vafo, rostlik, ilm kabi fazilatlar haqida alohida fikrlar bayon qilinadi.

Hazrat Navoiy «Lison ut-tayr» dostonida yozadi:

O'z vujuding'a tafakkur aylagil,

Har ne istarsen – o'zungdin istagil. [6. "Lison ut-tayr", 157-bet]

Shuning uchun Navoiy "Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo" [7. "Farhod va Shirin"] deb yozsa, "Qisas ar-Rabg'uziy"da bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi deb ta'kidlanadi. [5. Adabiyot-9 1-qism, 93-bet]

O'tgan asrda Andijonda ko'pchilik musulmonlarga peshvo bo'lib o'tgan ulug'larimizdan biri Fattohxon maxdum bunday degan ekanlar: "Men Navoiy "Xamsa"sini to'rt marotaba o'qib chiqdim. Birinchi o'qiganimda uni shunchaki muhabbat haqidagi hikoyalar ekan, deb o'yladim. Keyingisida unda oyat va hadislarning ma'nolari bor ekanini payqadim. Uchinchi, to'rtinchi bor o'qiganimda ular Islomdan boshqa narsa emasligini angladim".

Rumiy bir umr ezgulikni, poklikni targ'ib qildi va o'zi komillikning namunasi bo'ldi. Mana hazratning shu ruhdagi ruboiysi:

Yaxshilik qil, zamon yaxshilik olsin,

.Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.

Mol-dunyo barchadin, sendan ham qolur,

Yaxshi mol emas, yaxshilik qolsin. [8. Jaloliddin Rumiy. "Hikmatlar", 122-bet]

O'z umrini: «Men o't oldim, yondim va kuyib bo'ldim» degan so'zlar bilan xotimalagan Rumiy aytadiki, «Qachonki men o'lsam, meni tuproqdan emas, orif odamlar qalbidan izlang...».

Sharq Haqni topdi,

Dunyodan kechib,

G'arb dunyo topdi,

Allohdan kechib. [9. A. Muhammad "Sharq Haqni topdi...", 2-bet]

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Rumiy hikmatlari, tasavvuf falsafasi undan ilhom olgan keyingi daho ijodkorlar, xususan Alisher Navoiy ijodida izchil rivojlantirildi. Natijada Rumiy ijodi qaysidir ma'noda Sharq adabiyotida izdoshlari uchun adabiy-estetik hamda ijtimoiy qadriyat o'laroq yoyildi, an'anaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жалоліддин Румий. "Ичингдаги ичингдадир". Тошкент. "Yangi asr avlodi" nashriyati. 2019. – 264 б.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/jaloliddin-rumiy-hikmatlar.html>
3. Радий Фиш. "Жалоліддин Румий". Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т. 2005. – 248 б.
4. Алишер Навоий. "Хазойинул-маоний" девони. "Бадоеул-васат". Адабиёт ва санъат нашриёти. Т: .1991 - 381 bet.
5. Adabiyot darsligi. 9-sinf. I QISM Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3- nashri. "Yangiyo'l poligraf servis" Toshkent — 2014. – 268 б.

6. Алишер Навоий. "Лисонут-тайр". Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991 - 176 bet
7. Алишер Навоий. "Хамса". "Фарход ва Ширин" достони. Т. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2019. - 152 bet.
8. Жалолиддин Румий. "Ҳикматлар". ЎзРФА "Фан". Т.:2007.- 139 bet.
9. Аҳмад Муҳаммад. "Шарқ ҳақни топди..." Т.: «Sharq» - 2006. 124 bet